

Toshkent viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda Toshkent viloyatida o'rta maxsusva professional ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsusva professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **1 taga**, ya'ni **1,5 % ga** ko'payib, **68 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsusva professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2024/2025 o'quv yili boshida **4 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **o'zgarish** kuzatilmagan. Shuningdek, kollejlar sonida ham **o'zgarish** kuzatilmagan. Mazkur davr davomida ularning soni 2024/2025 o'quv yili boshida **11 tani** tashkil etgan.

Kasb-hunar maktablari esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida pasayish kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablari soni **3 taga** (ya'ni **8,6 % ga**) kamaygan. Aksincha, texnikumlar soni **4 taga** (**23,5 % ga**) oshib **21 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsusva professionalta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent viloyati	4	32	11	21
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	-	-	-	-
Olmalik	-	1	1	2
Angren	-	2	1	3
Bekobod	-	1	-	2
Ohangaron	-	1	-	-
Chirchiq	1	1	-	4
Yangiyo'l	-	2	-	1
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	-	2	-	-
Ohangaron	-	2	1	-
Bekobod	-	-	1	-
Bo'stonliq	-	2	1	1
Bo'ka	-	1	1	1
Quyi Chirchiq	-	-	1	1
Zangiota	-	2	1	1
Yuqori Chirchiq	-	1	1	1
Qibray	2	1	-	-
Parkent	1	1	1	-
Piskent	-	2	-	-
O'rta Chirchiq	-	3	1	1
Chinoz	-	2	-	-
Yangiyo'l	-	3	-	1
Toshkent	-	2	-	2

Eng ko'p akademik litseylar Qibray tumanida (**2 ta**) kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – O'rta Chirchiq (**3 ta**), Yangiyo'l (**3 ta**) tumanlari, kollejlari bo'yicha – 11 ta hududda (har birida **1 tadan**) hamda texnikumlar soni bo'yicha Chirchiq shahar (**4 ta**), Angren shahar (**3 ta**) va Olmalik, Bekobod shaharlari, Toshkent tumanida (har birida **2 tadan**) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

Boshqa hududlarga nisbatan, eng kam akademik litseylar Chirchiq shahar va Parkent tumanida (har birida **1 tadan**) kuzatilgan. Eng kam kasb-hunar maktablari Olmalik, Bekobod, Ohangaron, Chirchiq shaharlari va Bo'ka, Yuqori Chirchiq, Qibray, Parkent tumanlarida (har

birida **1 tadan**) to'g'ri kelgan. Texnikumlar soni bo'yicha esa Yangiyo'l shahar hamda Bo'stonliq, Bo'ka, Quyi Chirchiq, Zangiota, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Yangiyo'l tumanlarida (har birida **1 tadan**) eng past ko'rsatkichga ega bo'lganlar.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

[Kollejlar soni](#)


II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2023/2024 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **10,0 ming nafardan 11,0 ming nafargacha** ko'paygan, ya'ni **10,0 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa **2,7 ming nafardan 2,8 ming nafargacha**, ya'ni **3,7 % ga** oshgan.


Qabul qilingan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)


Akademik litseylar




Kasb-hunar maktablari



Kollejlar



Texnikumlar



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin — **0,6 ming nafardan 0,7 ming nafargacha**, ya'ni **16,7 % ga** oshgan. Biroq, kollejlarda qabul qilinganlar soni keskin kamaygan — **0,9 ming nafardan 0,6 ming nafargacha**, deyarli **1,5 barobarga**.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent viloyati	0,7	11,0	0,6	2,8
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	-	-	-	-
Olmalik	-	0,6	0,1	0,5
Angren	-	1,3	-	0,3
Bekobod	-	0,8	-	0,2
Ohangaron	-	1,0	-	-
Chirchiq	0,2	0,3	-	0,8
Yangiyo'l	-	0,5	-	0,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	-	0,6	-	-
Ohangaron	-	0,4	-	-
Bekobod	-	-	-	-
Bo'stonliq	-	0,5	-	0,1
Bo'ka	-	0,3	0,1	0,2
Quyi Chirchiq	-	-	0,3	-
Zangiota	-	0,7	0,1	0,1
Yuqori Chirchiq	-	0,4	-	0,1
Qibray	0,4	0,2	-	-
Parkent	0,1	0,3	-	-
Piskent	-	0,4	-	-
O'rta Chirchiq	-	1,0	-	-
Chinoz	-	0,3	-	-
Yangiyo'l	-	0,9	-	0,1
Toshkent	-	0,5	-	0,2

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qibray tumani (**0,4 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha – Angren shahar (**1,3 ming nafar**), kollejlari bo'yicha – Quyi Chirchiq tumani (**0,3 ming nafar**) va texnikumlar bo'yicha esa – Chirchiq shahar (**0,8 ming nafar**)da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Parkent tumani (**0,1 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Qibray tumani (**0,2 ming nafar**), kollejlari bo'yicha — Olmalik shahar, Bo'ka, Zangiota tumanlari (**0,1 ming nafar**) hamda texnikumlar bo'yicha – Bo'stonliq, Zangiota, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l tumanlari (**0,1 ming**)da eng past ko'rsatkichlar belgilangan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar


So'nggi yillarda Toshkent viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni kamayish kuzatilmoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **3,9 ming nafarga**, ya'ni deyarli **11,7 % ga** kamayib, **29,3 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)


Akademik litseylar




Kasb-hunar maktablari



Kollejlar



Texnikumlar



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025 o'quv yili boshida ularning soni **1,2 ming nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **7,7 % ga** kamaygan, kollej o'quvchilari sonida ham kamayish qayd etilgan — ushbu davr mobaynida **3,1 ming nafarga** (ya'ni **60,8 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **2,0 ming nafarni** tashkil etgan. Shuningdek, texnikum o'quvchilari soni ham kamaygan — ushbu davr mobaynida **1,6 ming nafarga** (ya'ni **20,8 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **6,1 ming nafarni** tashkil etgan

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida kasb-hunar maktablaridagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshiga kelib, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablarida o'quvchilar soni **0,9 ming nafarga**, ya'ni **4,7 % ga** oshgan va **20,0 ming nafarni** tashkil etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qibray tumanida (**0,7 ming**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Angren shaharda (**2,7 ming**), kollejlarda bo'yicha Quyi Chirchiq tumanida (**0,4 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Olmaliq shaharda (**1,4 ming**) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylardagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Parkent tumanida (**0,2 ming**), kasb-hunar

maktablari bo'yicha Yuqori Chirchiq va Qibray tumanlarida (**0,5 ming**), kollejlari bo'yicha Ohangaron, Bekobod, Bo'stonliq, Yuqori Chirchiq, Parkent, O'rta Chirchiq tumanlarida (**0,1 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Bo'stonliq, Quyi Chirchiq, O'rta Chirchiq tumanlarida (**0,1 ming**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Toshkent viloyati	1,2	20,0	2,0	6,1
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	-	-	-	-
Olmalik	-	1,0	0,3	1,4
Angren	-	2,7	0,2	0,6
Bekobod	-	1,4	-	0,6
Ohangaron	-	1,5	-	-
Chirchiq	0,3	0,6	-	0,8
Yangiyo'l	-	0,8	-	0,4
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	-	1,0	-	-
Ohangaron	-	0,7	0,1	-
Bekobod	-	-	0,1	-
Bo'stonliq	-	1,0	0,1	0,1
Bo'ka	-	0,6	0,2	0,4
Quyi Chirchiq	-	-	0,4	0,1
Zangiota		1,3	0,3	0,4
Yuqori Chirchiq	-	0,5	0,1	0,3
Qibray	0,7	0,5	-	-
Parkent	0,2	0,6	0,1	-
Piskent	-	0,6	-	-
O'rta Chirchiq	-	1,8	0,1	0,1
Chinoz	-	0,7	-	-
Yangiyo'l	-	1,6	-	0,5
Toshkent	-	1,1	-	0,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024- yilda, 2021- yilga nisbatan, ularning umumiy soni **8,3 barobarga** oshib, **15,0 ming nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **8,5 ming nafarga** (ya'ni **13,1 barobarga**), kollejlarniki — **1,8 ming nafarga (10 barobarga)**, texnikumlarniki esa **2,9 ming nafarga (10,7 barobarga)** oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **0,6 ming nafarni** tashkil etgan ya'ni **o'zgarish** qayd etilmagan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



Bitiruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Toshkent viloyati	0,6	9,2	2,0	3,2
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	-	-	-	-
Olmalik	-	0,6	0,3	0,7
Angren	-	1,4	0,3	0,2
Bekobod	-	0,5	-	0,3
Ohangaron	-	0,5	-	-
Chirchiq	0,2	0,3	-	0,4
Yangiyo'l	-	0,4	-	0,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	-	0,3	-	-
Ohangaron	-	0,3	0,1	-

Bekobod	-	-	0,1	-
Bo'stonliq	-	0,5	-	-
Bo'ka	-	0,2	0,3	0,1
Quyi Chirchiq	-	-	0,1	-
Zangiota		0,8	0,3	0,3
Yuqori Chirchiq	-	0,2	0,1	0,2
Qibray	0,3	0,2	-	-
Parkent	0,1	0,3	0,2	-
Piskent	-	0,3	-	-
O'rta Chirchiq	-	0,9	0,2	0,2
Chinoz	-	0,3	-	-
Yangiyo'l	-	0,7	-	0,4
Toshkent	-	0,5	-	0,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)


V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshida Toshkent viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **1 596 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **145 nafarga**, ya'ni **10,0 %** ga oshgan.


Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni

(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)


Akademik litseylar




Kasb-hunar maktablari



Kollejlar



Texnikumlar



2024/2025 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **103 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **17,0 % ga** oshgan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida ham o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **216 nafarga**, ya'ni **23,5 % ga** ko'payib, **1 134 nafarni** tashkil etgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kamayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **83 nafarga (47,4 % ga)** qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **92 nafarni** tashkil etgan. Shuningdek, texnikumlarda ham ushbu ko'rsatkich **3 nafarga (1,1 % ga)** qisqarib, **267 nafarni** tashkil etgan.

Enga ko'p pedagog xodimlar(o'rindoshlarsiz) soni akademik litseylar bo'yicha Qibray tumani (**63 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Angren shahar (**131 nafar**), kollejlarda bo'yicha — Zangiota tumani (**27 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa — Olmaliq shahar (**64 nafar**)da kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlarda	Texnikumlar
Toshkent viloyati	103	1 134	92	267
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	-	-	-	-
Olmaliq	-	75	7	64
Angren	-	131	8	18
Bekobod	-	100	-	59
Ohangaron	-	51	-	-
Chirchiq	25	35	-	46
Yangiyo'l	-	119	-	4
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	-	36	-	-
Ohangaron	-	34	5	-
Bekobod	-	-	3	-
Bo'stonliq	-	51	2	5
Bo'ka	-	35	15	23
Quyichirchiq	-	-	14	1
Zangiota	-	76	27	4
Yuqori Chirchiq	-	36	2	5
Qibray	63	46	-	-
Parkent	15	40	5	-
Piskent	-	24	-	-
O'rta Chirchiq	-	63	4	5
Chinoz	-	39	-	-
Yangiyo'l	-	73	-	27
Toshkent	-	70	-	6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(ayollar\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(erkaklar\)](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Toshkent viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar viloyat va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari



(BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Ijtimoiy soha statistikasi
bo'limi*

Manzil: 100198, Toshkent v.,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy
El. manzil: info@toshvilstat.uz
Tel.: 71-203-45-00 (4600)